

**O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING SIYOSIY VA DAVLAT
BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKI**

Temirbaeva Tumaris Tleubaevna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Anotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy va davlat boshqaruvidagi ishtirokining rivojlanish jarayoni, uning huquqiy asoslari, bugungi holati va istiqbollari tahlil qilinadi. Mamlakatda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning siyosiy, ijtimoiy hamda boshqaruv jarayonlaridagi faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek xotin-qizlarning parlament, siyosiy partiyalar, davlat boshqaruvi va mahalliy vakillik organlaridagi ishtiroki statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi. Maqolada xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishda ta'limning o'rni, yosh qizlarda liderlik ko'nikmalarini shakllantirish, fuqarolik va huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlari

xotin-qizlar, gender tenglik, siyosiy ishtirok, davlat boshqaruvi, siyosiy faollik, ayollar liderligi, parlament, siyosiy partiyalar, ta'lim, fuqarolik madaniyati, huquqiy madaniyat, teng huquq va imkoniyatlar.

Abstract

This article analyzes the participation of women in political life and public administration in Uzbekistan, their role in socio-political processes, and the legal and social foundations for increasing their political activity. It highlights the reforms implemented in the country aimed at ensuring gender equality, protecting women's rights and legitimate interests, and expanding their participation in public administration, parliamentary activities, and political processes. Particular attention is paid to the role of education in increasing women's political participation and developing leadership skills, legal literacy, independent thinking, and civic competencies among young women.

Key words

Women, gender equality, political participation, public administration, political activity, women's leadership, parliament, political parties, education, civic competencies.

Аннотация

В статье анализируется участие женщин Узбекистана в политической жизни и государственном управлении, их роль в общественно-политических процессах, а также правовые и социальные основы повышения их политической активности. Освещаются проводимые в стране реформы, направленные на обеспечение гендерного равенства, защиту прав и законных интересов женщин, расширение их участия в государственном управлении, парламентской деятельности и политических процессах. Особое внимание уделяется роли образования в повышении политической активности женщин, формированию у молодых девушек лидерских качеств, правовой грамотности, самостоятельного мышления и гражданских компетенций.

Ключевые слова

женщины, гендерное равенство, политическое участие, государственное управление, политическая активность, женское лидерство, парламент, политические партии, образование, гражданские компетенции.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyotini xotin-qizlarning faol ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi, ayollarning siyosiy hayotdagi faolligi, davlat boshqaruvida munosib vakilligi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtiroki demokratik jamiyatning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, negaki jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini davlat boshqaruvida to'laqonli aks ettirish uchun ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham xotin-qizlarning jamiyat va davlat hayotidagi mavqeini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta'lim olishi, kasbiy rivojlanishi, bandligi, tadbirkorligi va siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarga ega ekani mustahkamlangan. Shuningdek, mamlakatda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan maxsus qonunchilik bazasi shakllantirilgan. Jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun ushbu yo'nalishdagi muhim huquqiy asoslardan biridir. O'zbekistonning xalqaro majburiyatlari doirasida BTMning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakillariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur konvensiyaning 7-moddasida xotin-qizlarning saylovlarda ovoz berishi, saylanishi, davlat

siyosatini shakllantirishi va shuningdek davlat lavozimlarini egallashidagi teng huquqlari belgilangan. Yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, xotin-qizlarning siyosiy faolligi faqat parlament yoki davlat organlaridagi vakillik bilan cheklanmaydi. Siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish uchun insonda huquqiy bilim, siyosiy madaniyat, mustaqil fikrlash, muloqat qilish, muammolarni tahlil etish va yechim topishga harakat qilish va shuningdek qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimi xotin-qizlarning siyosiy va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim instituti hisoblanadi. Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy va davlat boshqaruvidagi ishtirokining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud imkoniyat va muammolarni aniqlash hamda mazkur jarayonda ta'limning o'rnini ochib berishdan iborat. Xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtiroki, avvalo, ularning asosiy siyosiy huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, demokratik jamiyatda fuqarolarning jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilardan qat'iynazar, davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi uchun teng sharoit yaratilishi lozim. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash borasida so'nggi yillarda muhim huquqiy mexanizmlar yaratildi. Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlariga oid 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani qayd etilgan. Konstitutsiyada ham xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatning barcha sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi kafolatlangan. Gender tenglikni ta'minlash masalasida 2030-yilgacha mo'ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasi alohida ahamiyatga ega. Huquqiy kafolatlarning mavjudligi xotin-qizlarning siyosiy jarayonda ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi, qonunchilikda belgilangan teng huquqlarni amaliyotda ro'yobga chiqarish ham muhimdir. Buning uchun siyosiy institutlar, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi zarur. Xotin-qizlarning siyosiy huquqlarni amalga oshirish jarayonida saylov tizimi alohida o'rin tutadi. Saylovlar fuqarolarning siyosiy irodasini ifodalashning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, ayollarning saylovchi va nomzod sifatidagi faolligi jamiyatdagi siyosiy jarayonlarning demokratikligini ko'rsatadi. O'zbekistonda saylov qonunchiligida siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatishda

xotin-qizlarning ulushini oshirishga qaratilgan talablar ham belgilangan. 2024-yilgi saylovlar oldidan qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarning kamida 40 % xotin-qizlardan iborat bo'lishi kerakligi belgilandi, avvalgi ko'rsatkich esa 30 % edi. Mazkur forma xotin-qizlarning siyosiy vaklligini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim

mexanizmlardan biridir, siyosiy partiyalarning o'zida ayollar uchun yetarli imkoniyat yaratilishi keyinchalik ularning saylanadigan davlat organlaridagi vakilligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat boshqaruvi jamiyat taraqqiyotining muhim mexanizmi hisoblanadi, davlat organlarida malakali, tashabbuskor va mas'iliyatli kadrlarning faoliyat yuritishi boshqaruv samaradorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish inson kapitalidan samarali foydalanishning muhim shartlaridan biridir. O'zbekistonda so'nggi yillarda xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi izchil ortib bormoqda, rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-2024-yillar davomida ayollarning boshqaruv lavozimlaridagi ulushi 26,5 %dan 30,1 %gacha oshgan. 2025-yil yakunlari bo'yicha davlat boshqaruvi va odil sudlov sohasida boshqaruv lavozimlarida xotin-qizlar ulushi 30,1%ni tashkil etgani qayd etilgan. Bu ko'rsatkich 28%

lik rejalashtirilgan maqsaddan yuqori bo'lgan. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish faqat son ko'rsatkichlarini oshirish emas, balki ularning real qaror qabul qilish jarayonlaridagi rolini kuchaytirishni ham anglatadi. Buning uchun ayollarni rahbarlikka tayyorlash, ularning professional va siyosiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mentorlik tizimini yo'lga qo'yish hamda xizmat pillapoyalarida o'sish imkoniyatlarini kengaytirish zarur bo'lib davlat boshqaruvida ayollar ulushining ortishi jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini yanada kengroq hisobga olishga yordam beradi. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, oila, bolalar tarbiyasi, ijtimoiy himoya kabi sohalarda xotin-qizlarning hayotiy tajribasi va professional bilimlaridan samarali foydalanish boshqaruv qarorlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytirishi mumkin. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini baholashda parlamentdagi vakillik muhim ko'rsatkichlardan biridir. Parlamentda ayollar sonining ortishi siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qonun ijodkorligida ayollar manfaatlarini kengroq ifodalash imkonini beradi. 2025-yilgi chaqiriqda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 150 nafar deputatidan 57 nafari, ya'ni 38%i xotin-qizlardan iborat bo'ldi va bu O'zbekiston parlamenti tarixidagi ayollar vakilligining yuqori ko'rsatkichlaridan biridir, milliy statistik ma'lumotlarda ham 2024-yilda Qonunchilik palatasida ayollar ulushi 38%, Senatda esa 25%ni tashkil etgani ko'rsatilgan. Parlamentdagi xotin-qizlar vakilligining ortishi, bir tomondan, ayollarning siyosiy jarayonlardagi faolligi oshayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, siyosiy partiyalarning ayollar uchun yaratgan imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi. Siyosiy partiyalar xotin-qizlarning siyosiy yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim institut sifatida maydonga chiqadi. Partiya faoliyatida ishtirok etish orqali ayollar saylovoldi jarayonlari, jamoatchilik bilan muloqat, siyosiy tashabbuslarini ishlab

chiqish, qonunchilik masalalarini muhokama qilish va davlat siyosatini shakllantirish jarayonlarida tajriba orttiradi. Shu bilan birga, siyosiy vakillik faqat parlamentdagi son bilan baholanmasligi kerak, ayol deputatlarning qonun ijodkorligi, parlament nazorati, qomitalar faoliyati va jamoatchilik bilan ishlashdagi faolligi ham muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlarning siyosiy va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishda ta'lim tizimining o'рни alohida ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida qizlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularni jamoat ishlariga jalb etish va mustaqil fikrlashga o'rgatish kelajakdagi fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida "Yosh liderlar", debat klublari, munozara to'garaklari, "Zakovat" kabi intellektual loyihalar, talabalar parlamentlari va turli jamoatchilik tashabbuslari yosh qizlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'la oladideb hisoblayman. Ta'limda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish mumkin. Masalan:

1. O'quvchi va talabalarga Konstitutsiya, saylov qonunchiligi, inson huquqlari va gender tenglik tamoyillari bo'yicha amaliy bilim berish.
2. Qizlarda notiqlik, muzokara olib boorish, jamoani boshqarish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Muvaffaqiyatga erishgan ayol davlat xizmatchilari, olimlar, pedagoglar, deputatlar va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.
4. Yosh ayollar uchun mentorlik dasturlarini rivojlantirish. Shu jihatdan, ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki kelajakdagi faol fuqaro va lider shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy institut sifatida qaralishi kerak.

O'zbekistonda xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosat bir nechta yo'nalishlarni qamrab oladil, uar orasida ta'lim, bandlik, tadbirkorlik, davlat boshqaruva, siyosiy ishtirok va ijtimoiy himoya masalalari o'zaro bog'liq holda rivojlantirilmoqda. Ayollarning iqtisodiy mustaqilliga ham uning ijtimoiy va siyosiy faolligiga ta'sir qiluvchiomillardan biridir. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishda ayrim gender stereotiplari, siyosiy-huquqiy bilimlarning yetarli emasligi hamda oilaviy va kasbiy majburiyatlarni uyg'unlashtirish kabi muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun:

1. qizlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish;
2. yosh ayollar uchun mentorlik tizimini rivojlantirish;
3. liderlik dasturlarini kengaytirish;
4. jamoatchilik loyihalarida ayollar ishtirokini rag'batlantirish;
5. ta'limda gender tenglik tamoyillarini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilsak O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy va davlat boshqaruvidagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda, bunda yaratilayotgan huquqiy imkoniyatlar bilan bir qatorda ta'limning ham o'rni katta. Yosh qizlarning siyosiy bilimini, liderlik qobiliyatini va fuqarolik faolligini rivojlantirish kelajakda davlat boshqaruvida faol va malakali ayollar sonining oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli ham xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishi va siyosiy faolligini oshirish bo'yicha ishlarni davom ettirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. -Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy materiallari.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qomitasi.
7. BMT. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya(CEDAW).
8. BMT. Barqaror rivojlanish maqsadlari.5-maqсад-Gender tenglik.
9. O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid normative-huquqiy hujjatlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Gender tenglik va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari.